


VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2022- yilning yanvar–iyun oylarida 7736 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 88,3 % ni tashkil qildi.

Eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (jamg‘a nisbatan 38,5 %), sanoat tarmog‘ida (11,1 %), qurilish tarmog‘ida (8,4 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarmog‘ida (6,3 %), axborot va aloqada (7,5 %), tashish va saqlash (4,1 %), sohliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (1,9 %), qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi (1,3 %) va boshqa tarmoqlar (20,9 %) tashkil etgan.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda**



2022- yilning yanvar–iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 15 002,4 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining indeksi 31,8 %) ni tashkil qiladi;

– investitsiyalar hajmi 13756,0 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 53,4 %) o‘zlashtirildi va 2021 yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 107,4 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 9663,9 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 66,6 %) va 2021 yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 102,7 % ni tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 24796,6 mlrd. so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 40,9 %) 2021 yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 105,1 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 28527,1 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 40,0 %) 2021 yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 129,9 % tashkil qildi;

– avtomobil transportida 474742,3 ming yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 82,1 %) 2021-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,7 % ni tashkil qildi;

– savdo hajmi 20081,6 mlrd. so‘mlik chakana tovar aylanmasi shakllanib (umumiy chakana tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 58,7 %) 2021 yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,1 % ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 363,9 mln.AQSh dollarni (umumiy eksport hajmidagi ulushi 17,2 %) tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so‘mda)


Tumanlar bo‘yicha eng yuqori sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi Olmazor (2038,4 mlrd.so‘m), Chilonzor (1758,6 mlrd. so‘m), Yashnobod (1868,5 mlrd. so‘m), Sergeli (1542,6 mlrd.so‘m), Yakkasaroy (1354,4 mlrd.so‘m), Shayxontohur (811,5 mlrd. so‘m) Mirobod (1038,6 mlrd.so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mirzo Ulug‘bek (997,8 mlrd. so‘m), Uchtepa (654,9 mlrd. so‘m), Yunusobod (1043,7 mlrd. so‘m), Bektemir (1210,6 mlrd. so‘m), va Yangihayot (682,9 mlrd. so‘m) tumanlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

2022 -yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va ulushi




2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Chakana tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori hajm Yunusobod (2178,1 mlrd. so'm), Uchtepa (2767,4 mlrd. so'm), Bektemir (1868,9 mlrd. so'm), Chilonzor (2183,7 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2313,9 mlrd. so'm), Sergeli (1993,3 mlrd. so'm), Shayxontohur (1721,9 mlrd. so'm), va tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, tumanlar bo'yicha eng past chakana tovar aylanmasi Mirobod (1204,4 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (1163,7 mlrd. so'm) Olmazor (1158,1 mlrd. so'm) Yashnobod (1295,5 mlrd. so'm), va Yangihayot (233,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Qurilish sohasi bo'yicha eng yuqori hajmga ega bo'lgan Mirzo Ulug'bek (1252,8 mlrd. so'm), Yashnobod tumani (1039,9 mlrd. so'm), Yunusobod (1315,5 mlrd. so'm), Yakkasaroy tumani (1102,6 mlrd. so'm), va Mirobod tumani (1099,4 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi. Chilonzor tumani (865,4 mlrd. so'm), Uchtepa (484,0 mlrd. so'm), Shayxontohur (596,0 mlrd. so'm), Olmazor (744,6 mlrd. so'm) Sergeli tumani (547,2 mlrd. so'm)

Bektemir tumani (277,0 mlrd. so'm) va Yangihayot tumani (339,5 mlrd. so'm) qurilish sohasida past hajmga ega.


2022-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da investitsiya sohasi ulushi



Investitsiya sohasi bo'yicha eng yuqori hajmlar Olmazor (1160,2 mlrd.so'm), Shayxontohur (787,2 mlrd. so'm), Yakkasaroy (1656,8 mlrd. so'm), Yangihayot (326,3 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (1856,4 mlrd.so'm) va Yunusobod (1719,4 mlrd. so'm), tumanlariga to'g'ri keladi.

Uchtepa (843,0 mlrd. so'm), Chilonzor (1017,7 mlrd. so'm), Mirobod (1160,2 mlrd. so'm), Bektemir (741,7 mlrd. so'm), Yashnobod (1332,2 mlrd. so'm), va Sergeli (733,4 mlrd.so'm) tumanlarida investitsiya hajmi past bo'lib qolmoqda.

2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Xizmatlar sohasida eng yuqori hajmlar Mirzo Ulug‘bek (1819,8 mlrd. so‘m), Yashnabod (1746,0 mlrd.so‘m), Olmazor (1981,5 mlrd.so‘m), Yakkasaroy (2157,1 mlrd.so‘m), Mirobod (2872,1 mlrd. so‘m),), Shayxontohur (1936,3 mlrd. so‘m) Chilonzor (4046,4 mlrd. so‘m), va Bektemir (1446,8 mlrd. so‘m), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past xizmat hajmiga ega bo‘lgan Uchtepa (1911,4 mlrd.so‘m), Yunusobod (1746,0 mlrd. so‘m), Yangihayot (1208,8 mlrd. so‘m), va Sergeli (1355,8 mlrd. so‘m) tumanlari hisoblanadi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, foizda

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Chakana savdo</i>
Toshkent shahri	31,8	66,6	40,9	58,7
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	26,9	54,6	80,0	83,1
Mirzo Ulug‘bek	39,9	79,8	31,2	57,4
Mirobod	27,9	69,9	39,1	52,1
Olmazor	64,0	84,3	40,0	51,5
Sergeli	28,4	85,3	39,6	65,1
Uchtepa	39,6	48,6	54,1	84,5
Chilonzor	39,4	55,7	60,0	49,5
Shayxontohur	27,1	58,9	27,5	49,8
Yunusobod	47,0	47,6	20,2	48,0
Yakkasaroy	41,5	86,7	39,3	67,0
Yashnabod	16,5	85,7	51,7	51,9
Yangihayot	36,9	63,8	94,8	34,1

Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ulush Yangihayot (36,9 %), Olmazor (64,0 %), Chilonzor (39,4 %), Yunusobod (47,0 %), Sergeli (28,4 %), Yakkasaroy (41,5 %), Mirzo Ulug‘bek (39,9 %), Bektemir (26,9 %), Uchtepa (39,6 %), Shayxontohur (27,1 %), Mirobod (27,9 %) va Yashnabod (16,5 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Qurilish bo‘yicha eng yuqori ulush Yangihayot (63,8 %), Sergeli (85,3 %), Yashnabod (85,7 %), Yakkasaroy (86,7 %), Bektemir (54,6 %), Mirobod (69,9 %), Chilonzor (55,7 %), Olmazor (84,3 %), Mirzo Ulug‘bek (79,8 %), Shayxontohur (58,9 %), Yunusobod (47,6 %) va Uchtepa (48,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida eng yuqori ulush Yangihayot (94,8 %) Bektemir (80,0 %), Uchtepa (54,1 %), Yashnobod (51,7 %), Yakkasaroy (39,3 %), Mirzo Ulug‘bek (31,2 %) Chilonzor (60,0 %), Sergeli (39,6 %), Olmazor (40,0 %), Shayxantohur (27,5 %), Mirobod (39,1 %), Yunusobod (20,2 %), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chakana savdo aylanmasida eng yuqori ulush Yangihayot (34,1 %), Uchtepa (84,5 %), Bektemir (83,1 %) M. Ulug‘bek (57,4 %), Yakkasaroy (67,0 %), Shayxontoxur (49,8 %), Olmazor (51,5 %), Yashnobod (51,9 %), Chilonzor (49,5 %), Mirobod (52,1 %), va Sergeli (65,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


2022-yilning yanvar–iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 47,1 % ni tashkil qildi (2021 yilning yanvar–iyun 50,2 %), YAHM tarkibi o‘tgan yilga nisbatan 3,1 foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2022-yil yanvar– iyun oylari yakunlariga ko‘ra, mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 3915 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma’lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 24,5 % qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda sanoat sohasida 63,5 % qulay va 11,9 % esa qoniqarli, savdo sohasida 34,0 % va 56,2 %, xizmatlar sohasida 32,6 % va 59,2 % ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 19,0 %, xizmatlarda 8,2 %, qurilishda 15,5 %, savdoda 9,8 % va sanoatda 11,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni tarmoqlar kesimida baholash 2022- yil yanvar-iyun oylarida, foizda



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.